

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrilloevna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI	213-222
---	---------

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА	223-233
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI: NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA").....	234-241
--	---------

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdorovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL VA TEVARAK-ATROF	242-246
---	---------

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI	247-251
---	---------

Temple Chimunya Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS IN CONCRETE	252-265
---	---------

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH SSENARIYLARI	266-271
--	---------

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING IJODIIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI	272-277
---	---------

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI	278-283
---	---------

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIIY FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	284-289
--	---------

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI.....	290-294
--	---------

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARDA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA UCHUN TANQIDIIY FIKRLASH	295-300
---	---------

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

CRITERIA FOR DETERMINING HUMAN DIGNITY IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY AND THE ROLE OF TRADE UNIONS IN ENSURING HUMAN DIGNITY IN MODERN SOCIETY

Beshimov Khamidjon Sayidovich

Deputy Chairman of the Bukhara Regional Council of the Federation of Trade Unions of Uzbekistan, Independent Researcher of Bukhara State University

Abstract. This article analyzes the criteria for determining human value in the context of the development of civil society philosophically-socially. As the main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted. This article analyzes the criteria for determining human value in the context of the development of civil society philosophically-socially. As the main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted. In this article, the criteria for determining human value in the context of the development of civil society are analyzed philosophically-socially. As the main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted. The main indicators of human value, issues of personal freedom, protection of rights and interests, social justice and the provision of decent working conditions are highlighted. Also, in the formation of today's society, the role of trade unions in determining human value, their impact on the protection of labor rights, the development of social partnership and the increase of civil activity are analyzed. It is explained that human value depends on the norm. The article substantiates the importance of trade unions as an important institutional mechanism in ensuring human value on the basis of the activities of Trade Unions of the Republic and Trade Unions of the Bukhara region.

Keywords: civil society, human dignity, social justice, labor rights, trade unions, social partnership, civic activism.

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI

Beshimov Xamidjon Sayidovich

O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashi raisi o'rinbosari, Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: beshimovhamid@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada fuqarolik jamiyati taraqqiyoti sharoitida inson qadrini belgilash mezonlari falsafiy-ijtimoiy jihatdan tahlil qilinadi. Inson qadrining asosiy ko'rsatkichlari sifatida shaxsiy erkinlik, huquq va manfaatlarining himoya qilinishi, ijtimoiy adolat hamda munosib mehnat sharoitlarini ta'minlash masalalari yoritiladi. Shuningdek, bugungi jamiyat shakllanishida inson qadrini qaror toptirishda kasaba uyushmalarining o'рни, ularning mehnat huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish va fuqarolik faolligini oshirishdagi ta'siri tahlil qilinadi. Inson qadrining me'yorga bog'liqligi tushuntiriladi. Maqolada kasaba uyushmalarining inson qadrini ta'minlashda muhim institutsional mexanizm sifatidagi ahamiyati respublika kasaba uyushmalari va Buxoro viloyati kasaba uyushmalari faoliyati asosida asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: fuqarolik jamiyati, inson qadri, ijtimoiy adolat, mehnat huquqlari, kasaba uyushmalari, ijtimoiy sheriklik, fuqarolik faolligi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N10>

Falsafiy tafakkurda inson qadri masalasi azaldan markaziy o‘rin egallab kelgan va turli davrlarda u turlicha mazmunda talqin qilingan. Inson qadri deganda, avvalo, uning shaxsiy va ijtimoiy mavqeyini, ruhiy-ma’naviy dunyosi hamda amaliy faoliyatdagi salmog‘ini belgilaydigan o‘lchovlar nazarda tutiladi. Bu o‘lchovlar bir vaqtning o‘zida obyektiv va subyektiv, ma’naviy va moddiy, ilmiy va amaliy jihatlaridan iboratdir. Shuning uchun ham inson qadrini faqat iqtisodiy yoki siyosiy mezonlar bilan cheklash mumkin emas, balki uning ma’naviy kamolotini, ijodiy imkoniyatlarini va falsafiy g‘oyalarini ham nazarda tutish talab etiladi.

Inson qadrining falsafiy mazmun-mohiyati, avvalo, uning butun jamiyat tizimida tutgan o‘rni va mavqeyi bilan chambarchas bog‘liq. Jamiyatning rivojlanish darajasi qay darajada yuqori bo‘lsa, unda inson qadrini anglash, uning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ham shunchalik ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Inson qadrini e’tirof etmagan, uning shaxsiy qadriyat sifatidagi mohiyatini anglamaydigan ijtimoiy tuzumlar esa uzoq yashay olmagan. Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, faqat inson qadrini yuksaltirishga asoslangan tizimlarga barqaror taraqqiyotga erishgan.

Inson qadri tushunchasining genezisini tahlil qilar ekanmiz, uning ildizlari qadimgi mifologik dunyoqarashlarda ham ko‘rinib turadi. Masalan, Sharq mifologiyasida inson koinotning bir qismi sifatida talqin qilingan va unga mutanosib ravishda ma’naviy mas’uliyat yuklangan. G‘arb mifologiyasida esa inson ko‘pincha tabiatga qarshi qo‘yilgan holda, uning kuchlarini zabt etuvchi qahramon sifatida namoyon bo‘lgan. Keyinchalik, falsafa shakllanishi bilan birga inson qadri masalasi ilmiy-mantiqiy asosda tadqiq qilina boshladi.

Antik davr faylasuflari — Suqrot, Platon, Aristotellar inson qadrini aql va ma’rifat bilan bog‘lab talqin qilganlar. Suqrot inson qadrining mohiyatini “o‘zini anglash”da ko‘rgan bo‘lsa, Platon uni ideal g‘oyalar dunyosi bilan chambarchas bog‘lab izohlagan. Aristotel esa insonni “ijtimoiy hayvon” sifatida ta’riflab, uning qadri jamiyatdagi faoliyat va munosib hayoti orqali belgilanishiga urg‘u berdi. Bu fikrlar keyingi asrlarda inson qadrini anglash va izohlashda nazariy asos vazifasini bajardi.

Islom falsafasida inson qadri mutlaq darajada yuksak o‘ringa ega bo‘lib, Qur’oni karimda “Biz odam farzandlarini aziz-u mukarram qildik” degan oyat inson qadrining ilohiy asosini belgilab berdi. Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlar insonni aql va ma’naviyat sohibi sifatida ko‘rib, uning qadri ilm-ma’rifat, axloq va ijtimoiy mas’uliyat bilan belgilanishini asoslab berdilar. Ular insonni nafaqat moddiy jism, balki ma’naviy va ruhiy olam egasi sifatida ham tahlil etdilar.

Yangi davr faylasuflari — Dekart, Kant, Gegel, Fixte, Feyerbax va boshqalar inson qadri tushunchasini yangi bosqichga olib chiqdilar. Dekartning “Men o‘ylayman, demak men mavjudman” degan g‘oyasi insonning ong va tafakkur orqali qadrini anglash imkoniyatini ko‘rsatdi. Kant esa insonni “maqsad sifatida” talqin etib, uning qadri hech qanday vosita bilan o‘lchanmasligini, insonning ma’naviy avtonomiyasi va erkinligi eng yuksak qadriyat ekanligini ta’kidladi.

XX asrda inson qadri tushunchasi global miqyosda o‘rganildi. Ekzistensializm va gumanistik falsafa insonning shaxsiy mas’uliyati, tanlovi va ozodligiga katta e’tibor qaratdi. Masalan, Sartr insonni “ozodlikka mahkum” deb ta’riflab, uning qadri o‘z tanlovlari va qarorlari orqali belgilanishini ta’kidladi. Shu bilan birga, global muammolar — urushlar, ekologik

inqirozlar, texnologiyalar ustuvorligi kabi jarayonlar inson qadrini yangi jihatdan qayta ko'rib chiqish zaruratini tug'dirdi.

Sharq mutafakkirlari ham inson qadriga oid muhim g'oyalarni ilgari surdilar. Masalan, Navoiy insonni "kamolot yo'lidagi zot" sifatida talqin qilib, uning qadri ma'naviyat va axloq bilan belgilanishini ta'kidladi. Uning fikricha, insonning haqiqiy qimmati uning ijtimoiy faolligi, ma'rifatga intilishi va odob-axloqi orqali yuksaladi.

Hozirgi zamonda esa inson qadri masalasi global falsafiy va ijtimoiy muammo sifatida qaralmoqda. Demokratik jamiyatlarda inson huquqlari va erkinliklari inson qadrining asosiy ko'rsatkichi sifatida qabul qilinmoqda. Biroq, iqtisodiy tengsizlik, migratsiya, ma'naviy inqiroz kabi omillar inson qadriga tahdid soluvchi asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, inson qadrini yuksaltirish masalasi nafaqat falsafiy, balki amaliy-ijtimoiy vazifa sifatida ham kun tartibiga chiqmoqda.

Inson qadri tushunchasining mazmun-mohiyati va genezisi turli davrlarda turlicha talqin qilinsa-da, uning markazida har doim insonning ma'naviy olami, ijtimoiy mavqeyi va ijodiy imkoniyatlari turib kelgan. Falsafa esa bu jarayonda inson qadrini anglash, asoslash va yuksaltirishning nazariy-metodologik poydevorini yaratgan.

Inson qadri tushunchasining mazmun-mohiyatini tahlil qilar ekanmiz, uning faqat nazariy-falsafiy masala emas, balki amaliyotda inson hayotining turli sohalarida o'z aksini topishi muhim ahamiyatga ega. Chunki qadriyatlar tizimi jamiyatning ma'naviy va moddiy asosini belgilab, uning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bois, inson qadrining mazmun-mohiyatini anglash jarayonida faqat falsafiy nazariyalargina emas, balki ijtimoiy amaliyot, tarixiy tajribalar, diniy ta'limotlar, ilmiy kashfiyotlar va ma'naviy meros ham katta ahamiyat kasb etadi.

Inson qadrining mohiyati avvalo uning tabiiy va ma'naviy dunyosida namoyon bo'ladi. Inson bir vaqtning o'zida biologik mavjudot hamda ma'naviy olam egasi sifatida namoyon bo'ladi. Biologik jihatdan inson tabiatning bir qismi, uning qonuniyatlariga bo'ysunuvchi mavjudotdir. Biroq uning qadri faqat moddiy va biologik o'lchovlar bilan belgilanmaydi, chunki insonning ma'naviy qiyofasi, axloqiy yo'nalishi va ijtimoiy mas'uliyati uning haqiqiy qimmatini belgilaydi.

Shu jihatdan qaralganda, inson qadri tushunchasi bir qancha o'lchovlarga ega: ma'naviy, axloqiy, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy. Masalan, ma'naviy o'lchov insonning ruhiy olami, o'zini anglashi, ma'rifat va bilimga intilishi bilan bog'liq. Axloqiy o'lchov esa uning ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg'on, adolat va nohaqlik kabi tushunchalar bilan munosabatida ko'rinadi. Ijtimoiy o'lchov insonning jamiyatda tutgan mavqeyi, faolligi va ijtimoiy rollari bilan belgilanadi.

Tarixiy jarayonda inson qadrining anglanishi ham turlicha namoyon bo'lgan. Masalan, qadimgi Sharq tamaddunida inson qadri ko'proq diniy va ma'naviy asoslarda belgilangan bo'lsa, G'arb falsafasida inson qadri ko'proq aql va tafakkur orqali asoslangan. Islom falsafasida esa inson qadri ilohiy asoslarga tayanilgan holda, uning ma'naviy yuksalishi, axloqiy poklanishi va ijtimoiy mas'uliyati orqali izohlangan.

Inson qadrining genezisini o'rganishda ijtimoiy munosabatlar va davlatchilik tizimlarining rivoji ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, qadimgi davlatlarda inson qadri ko'proq ijtimoiy tabaqalar, zodagonlik yoki hukmdorga bo'lgan yaqinlik bilan o'lchangan bo'lsa, demokratiya va inson huquqlari g'oyalari rivojlanishi bilan inson qadri umumiy huquqiy asosda

belgilana boshladi. Bugungi kunda inson qadrining asosiy ko'rsatkichi — uning shaxsiy huquqlari, erkinligi va imkoniyatlarining ta'minlanganligi hisoblanadi.

Inson qadrini anglash jarayonida falsafiy yo'nalishlar orasida gumanizm g'oyasi alohida o'rin tutadi. Gumanizm insonni olam markaziga qo'yib, uning aql-zakovati, ma'naviyati va ijtimoiy mas'uliyatini eng yuksak qadriyat sifatida talqin qiladi. Bu yo'nalish ayniqsa, Uyg'onish davri falsafasida keng tarqalgan bo'lib, inson qadrini ma'rifat va ijod orqali yuksaltirish g'oyasi shakllandi.

Zamonaviy falsafada inson qadri masalasi global muammolar bilan uzviy bog'langan holda ko'rib chiqilmoqda. Texnologiyalar taraqqiyoti, bioinjeneriya, sun'iy intellekt kabi sohalardagi yangiliklar inson qadrining mazmun-mohiyatiga yangi qarashlarni taqozo etmoqda. Masalan, inson aqli va ijodkorligiga raqobatchi sifatida sun'iy intellektning namoyon bo'lishi inson qadrini qayta baholash zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shuningdek, ekologik muammolar ham inson qadrining tabiat bilan uyg'unlikda anglanishini talab qilmoqda.

Shu tarzda, inson qadri tushunchasi o'zining keng qamrovliligi, ko'p qirraliligi va tarixiy dinamikasi bilan ajralib turadi. Uning mohiyatini anglash uchun faqat nazariy falsafiy tahlilgina emas, balki turli tarixiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarni ham hisobga olish zarur.

Turli jamiyatlarda inson qadrining xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, zamonaviy jamiyatda inson qadri uning huquq va erkinlarini ta'minlashga bevosita bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida "Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega", 60-moddasida "Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburlar" deb qabul qilingan [1. 19,33b].

Keyingi 8 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda xalqni rozi qilish, har bir insonning qadr-qimmatini yuksaltirish yo'lida barcha sohalarda amalga oshirilayotgan harakatlar va tashabbuslar, keng ko'lamli va tizimli islohotlar natijasida katta o'zgarish va salmoqli natijalarga erishildi.

Davlat rahbarining tashabbuslari bilan chuqur va puxta o'ylab ishlab chiqilgan dasturiy hujjatlarning qabul qilinishi hamda amalga oshirilishi mamlakat hayotida muhim ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, "Inson sha'ni va qadr-qimmati yo'lida" tamoyiliga asoslangan islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" tasdiqlanishi xalq farovonligini yanada oshirishda muhim qadam bo'ldi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan va 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston-2030" strategiyasi amalga oshirilmoqda.

Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi insonga, uning erkin hayoti, qadr-qimmati va farovonligiga qaratilgan bo'lib, bu boradi aholining turmush tarzini yaxshilash, yangi korxonalarni tashkil qilish, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali aholi daromadini oshirishga asosiy e'tibor berildi.

2017-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti hajmi 249 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 567 trln. so'mga yetdi. Kambag'allik darajasi 2016-yildagi 17 foizdan 2024-yil yakuni bilan 7,3 foizgacha tushirildi.

Inson huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muhim qadamlar qo'yildi. Xususan, ko'p yillar davomida mamlakat aholisi uchun og'riqli masala bo'lib kelgan "ro'yxatga qo'yish" tizimi tubdan isloh qilindi. Birgina 2018-2021-yillarda fuqarolikni berish tartibi soddalashtirilishi natijasida 70 mingdan ortiq kishiga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi berildi.

Sud faoliyatida olib borilgan salmoqli o'zgarishlar natijasida Sud jarayonida nazorat organi bekor qilinib, sud tizimidagi ortiqcha sud bosqichlarini yo'q qilish orqali "bitta sud – bitta instansiya" tamoyili joriy etildi.

Aholining turmush darajasini oshirish sohasida olib borilgan islohotlarning yorqin natijalarini bugun butun dunyo hamjamiyati tan olmoqda.

Xususan, sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1373 ta qishloq tibbiyot markazlari qisqartirilib, ular o'rniga 793 ta qishloq oilaviy poliklinikalari, 441 ta shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari va kunduzgi kasalxonalar ochildi. 306 ta shahar va tuman kasalxonalarida yangi ixtisoslashtirilgan poliklinikalar va 1200 ta shoshilinch tibbiy yordam bo'limlari tashkil etildi.

Sifatli ta'lim sohasida ham qator o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. 2017-yilda respublikamizda 77 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilga kelib ularning soni 213 taga yetdi, shu davrda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 42 foizga ko'tarildi.

Yosh xotin-qizlarning ta'lim olishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratildi. 2021-yildan boshlab, har yili 3 mingdan ortiq qiz uchun alohida grantlar ajratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ayollarni to'lov-kontrakt asosida o'qitish uchun imtiyozli shartlarda ta'lim kreditlarini moliyalashtirish uchun davlat budjetidan banklarda mablag' ajratishning yangi tizimi joriy etildi.

Faqat 2019–2022-yillarning o'zida bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 46,6 foizdan 70,0 foizgacha oshirildi va mazkur islohotlar YUNESKO tashkiloti tomonidan yuqori baholandi. Maktabgacha ta'lim muassasalari soni 2017-yildagi 5 ming 211 tadan 2024-yilga kelib qariyb 34 mingtaga yetdi.

2017–2022-yillarning o'zida mamlakatimizda namunaviy loyiha bo'yicha 300 ming xonadon va yakka tartibdagi uy-joylar qurib, foydalanishga topshirildi va bu ko'rsatkich mustaqillikning o'tgan yillariga nisbatan 10 barobar ko'pdir. Mamlakatimiz dovrug'i Yangi O'zbekiston nomi bilan butun dunyoga taralmoqda.

Ana shunday izchil islohotlar va yangilanishlar jarayonida mamlakatimizdagi eng yirik jamoat tashkiloti bo'lgan kasaba uyushmalari ham faol ishtirok etib kelmoqda. Barcha sohalar kabi "Yangi O'zbekiston"ning "Yangi kasaba uyushmalari" ham shakllandi va islohotlarning faol ishtirokchisi bo'ldi.

"Barcha harakatlarimiz inson qadri uchun" shiori kasaba uyushmalari uchun haqiqiy dasturulamal bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Inson qadrini oshirish kasaba uyushmalari tashkilotlarining doimiy diqqat markazida bo'ldi. Kasaba uyushmalari tomonidan kasaba uyushma a'zolarining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy

manfaatlarini ta'minlash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilishi natijasida, inson qadrigimmatini yuksalishiga xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 17-oktyabrda kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o'tkazilgan uchrashuvda shunday fikrlarni bayon qildilar: "Ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy: "Biz o'z hayotimizni o'zgartirmoqchi bo'lsak, avvalo, odamlarning haq-huquqini tan olishni o'rganishimiz kerak", degan edi. Bu – haq gap. Chindan ham, huquq va erkinliklar ta'minlangan, odamlari emin-erkin yashab, mehnat qilib, daromad topadigan mamlakatda davlat ham, jamiyat ham albatta rivojlanadi. Shu bois, biz islohotlarni boshlagan ilk kunlardan "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani amalga oshirish uchun, avvalo, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab oldik" [4. 2-4b.].

Kasaba uyushmalari tomonidan 2020-2025-yillarda 2500 dan ortiq korxona va tashkilotlarda xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan davra suhbatlari, uchrashuvlarda mehnat munosabatlari bo'yicha tushuncha berildi. Xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida keyingi besh yilda ish beruvchilarga 88 ta ko'rsatma kiritilib, 500 nafar xodimning huquqlari tiklandi. 9,4 mlrd. so'm haq undirib berilishi ta'minlandi.

Zardushtlik ta'limoti insonni doimiy yaxshi fikr, latif so'z, yaxshi amallar qilishni targ'ib etadi. Faqirlarga mehribonlik qilish, musofirparvarlik, kishiga isnod keltiruvchi narsalardan voz kechishni o'rgatadi [7. 35-37].

330 ming nafar xodimlar ishlayotgan korxona, tashkilot va muassasalarda ish beruvchi va kasaba uyushmasi o'rtasida tuzilgan jamoa shartnomasi tadbirlarini bajarish uchun viloyat bo'yicha o'rta hisobda bir xodimga yil davomida sarflangan 2020-yilda 3,1 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda ushbu ko'rsatkich 7,2 mln. so'mni tashkil etdi.

Viloyatdagi 1874 ta korxona, tashkilot va muassasalarda ish beruvchilar tomonidan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga og'ishmay rioya qilinishi jamoatchilik nazorati tartibida o'rganildi.

Korxona va tashkilotlardagi jamoa shartnomalari orqali kasaba uyushmalari va ish beruvchining mablag'lari hisobidan viloyatda 2020-2025-yilning iyun oyiga qadar jamoa shartnomalari va kelishuvlari orqali 37 ming 695 nafar xodim va 13 ming 805 ta oilaga jami 18,9 mlrd. so'mlik moddiy ko'mak berildi [11.16-17b.].

Abdurauf Fitratning "Oila" asarida "inson qadri" atamasi Fitratga ko'ra, insonning qadrigimmati uning tug'ilishi bilan emas, tarbiya, ma'rifat va axloq orqali kamol topadi. Oila esa inson qadrigini belgilaydigan birinchi va eng muhim muhitdir. [8. 112b]

2020-2024-yillarda kasaba uyushma a'zolarining 183 ming nafari mamlakatimizning tarixiy shaharlariga hamda o'z hududlaridagi tarixiy qadamjolar, muzeylar, diqqatga sazovor joylarga sayohatlari uyushtirildi. Kasaba uyushmalari tizimidagi tashkilotlar tomonidan 3 ming 268 ta sport musobaqasi tashkil etilib, ularga 300 ming nafardan ortiq mehnatkashlar va ularning oila a'zolari jalb etildi.

Kasaba uyushmalari tizimidagi sanatoriylarda 2021-2024-yillar davomida Buxoro viloyatidan 9 ming 169 nafar dam oluvchilar sog'lomlashtirilib, ulardan 8 ming 620 nafari imtiyozli va 902 nafari bepul yo'llanmalar asosida o'z salomatliklarini tikladilar. Ishlaydigan keksalarning 77 nafari bepul yo'llanmalar bilan ta'minlandi.

2020-2025-yillarda kasaba uyushma a'zolarining 7-14 yoshdagi bolalari yoz mavsumi davomida bolalarni dam oldirish va sog'lomlashtirilishini tashkil etish borasida 11 ta shahar orti oromgohlarda 43 400 nafardan ortiq bola sog'lomlashtirildi [11. 2-15b].

Bundan ko'p emas o'n yillar oldin yuz minglab o'quvchi-talaba, turli davlat va nodavlat tashkilotlari xodimlari to'liq paxta mavsumiga jalb qilinardi. Bugungi kunda Prezident Sh.Mirziyoyevning siyosiy irodasi, terim uchun barcha sharoit va mexanizmlar yaratilganligi sababli, paxta terimida majburiy va bolalar mehnati to'liq bartaraf etildi. Bu holatni xalqaro tashkilotlar ham e'tirof etdilar. Kasaba uyushmalari tomonidan paxta yig'im terimida bolalar mehnatiga va majburiy mehnatga barham berish borasida monitoring ishlarini olib bordilar. 2017-yildan buyon bolalar mehnati va majburiy mehnat to'liq bartaraf etilishiga erishildi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan uchrashuvda, "Milliy huquq tizimi xalqaro standartlarga moslashib, inson huquqlari, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatining barqaror kafolatiga aylangandi. O'zbekiston Xalqaro mehnat tashkilotining 25 ta konvensiyasini ratifikatsiya qildi.

Har bir ratifikatsiya orqali O'zbekiston o'z zimmasiga katta majburiyat olmoqda. Chunki, barcha islohotlar zahirida inson qadrini ulug'lash mujassamdir. Va bu – mamlakatimiz qo'shilayotgan xalqaro hujjatlar mazmuni bilan to'la hamohangdir.

Aynan inson qadriga e'tibor – barcha yutuqlarimiz asosi, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz! Bir eslab ko'ring, bolalar mehnati va majburiy mehnatga to'liq barham berish uzoq yillar biz uchun eng og'riqli masala bo'lib kelgan edi. Faqat kuchli iroda, qat'iy pozitsiyamiz orqali biz bu murakkab muammoni ijobiy hal qildik. Mamlakatimizning bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ilg'or tajribasi Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan namuna sifatida boshqa davlatlarga tavsiya etilgani ham shundan dalolat beradi. O'zbek paxtasi dunyodagi ko'plab nufuzli brend kompaniyalarning "qora ro'yxati"dan chiqarildi. Hech shubhasiz, biz erishayotgan natijalarda 8 millionga yaqin a'zoga ega, eng xalqchil va katta nodavlat tashkiloti bo'lgan kasaba uyushmalarining munosib hissasi bor.

Kasaba uyushmalarining korxona va tashkilotlarda mehnatga oid huquqlarni himoya qilishdagi jonbozligi alohida e'tirofqa sazovor. Buni keyingi yillarda 500 mingga yaqin xodimning qonuniy huquqlari himoya qilinib, ularning foydasiga 267 milliard so'm undirib berilgani ham tasdiqlaydi. Shuningdek, ishdagi baxtsiz hodisalar tufayli jabrlangan 1 ming nafar xodimga 35 milliard so'm tovon puli to'lab berilgan. Bundan tashqari, nohaq bo'shatilgan 13 ming xodim ishga tiklangan.

Yangi O'zbekistonda har bir insonga munosib mehnat, kasb sohasida o'sish, dam olish va salomatligini tiklashi uchun zarur sharoit yaratish – g'oyat muhim masala.

Biz shu maqsadda ijtimoiy davlatning yangi modelini yaratyapmiz. "Kuchli kasaba uyushmalari – kuchli jamiyat asosi" degan tashabbus asosida sizlar bu jarayonda oldingi safda bo'lishingiz kerak" deya ta'kidladilar [4.12-14 b.]

Shuni ham ta'kidlash lozimki, insonga qancha qulay va erkin sharoitlar yaratilishi hamda inson oldida turgan muammolarning kamayishi ham inson hayoti va faoliyatida turg'unlik ko'zga tashlanib, uning jamiyatdagi qadriga soya tashlaydi. Hashamatli yashash, dabdabali to'y-ma'rakalar qilish, turli hoy-havaslar uchun mablag'larini sovrish, tabiat qonunlariga bepisand munosabatda bo'lish, zamonaviy jamiyatda tobora ko'p ko'zga tashlanib, bu o'z navbatida ekologik vaziyatni izdan chiqarmoqda. Insonga yaratilgan har bir imkoniyatda, uy-joy qurish, to'y-ma'rakalar tashkil etish, avtomashina va boshqa jihozlarga ega bo'lish, ovqatlanish, hattoki

orzu-havaslarini rejalashtirishda me'yorni saqlash ham maqsadga muvofiqdir. Me'yordan ortiq har bir harakat tabiat, atrof muhitga va ekologiyaga, sog'lom jamiyatni barpo etishdagi sa'y-harakatlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Insonni qadrlashda ham me'yorning oltin o'rtasini saqlash, me'yor chegaralarini qonunlar, normativ hujjatlar bilan belgilash zamonaviy jamiyatda eng muhim omil hisoblanadi. Yunon faylasufi Platon: "Ideal davlat tuzilishining asosiy negizida adolat va me'yor yotadi, deb ta'kidlagan [7. 30-33 b.].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'tgan o'n yillik tahlil etilganda, aholining jon boshiga umumiy daromadlari 2015-yilda 6,4 mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 27,5 mln. so'mni tashkil etdi.

O'zbekistonda aholining yashash darajasi yaxshilanishi hamda inson qadrining oshishi sababli o'rtacha umr ko'rishi 2015-yildagi 72,5 yosh o'rniga, 2024-yilda o'rtacha 75 yoshga ko'tarildi.

Zamonaviy jamiyatda inson qadrini baholash mezonlaridan biri bu jamiyatda kasaba uyushmalarining inson huquqlarini munosib himoya qilish, qonunlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini olib borishga har jihatdan bog'liq.

Shu bilan birga, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularni muntazam sog'lomlashtirish, sog'lom turmush tarzini qaror topshirish ham jamoa a'zolarining qadr-qimmatini yaxshilash oshirishga olib keladi.

Kasaba uyushmalari ijtimoiy davlatda zaruriy hodisadir. U mehnatkashlar, turli sinflar, qatlamlar va tabaqalar o'rtasidagi munosabatlarni mo'tadil holatini ta'minlaydi. Davlat o'z fuqarolarining munosib turmush darajasini ta'minlashi, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatmog'i, ta'lim, sog'liqni saqlash, dam olish va odamlarning kundalik turmushi muammolariga katta e'tibor qaratmog'i lozim. Bunday mamlakatda inson eng oliy qadriyat sifatida tan olinadi.

Inson qadrini yuksaltirishning institutsional asoslarini takomillashtirishda institutsional mexanizmlar, jumladan Kasaba uyushmalari bevosita muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ba'zi bir ijtimoiy, iqtisodiy yoki siyosiy kontekstda ishtirokchilarning o'zaro ta'sirini va xatti-harakatlarini tartibga soluvchi tizimlar, jarayonlar va qoidalarni o'zida aks ettiradi.

Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishda mavjud imkoniyatlardan, jumladan, Kasaba uyushmalarini yanada faollashtirish orqali erishish Yangi O'zbekiston sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yanada yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining regulyativ funksiyasini rivojlantirishga yo'nalgan faoliyat barcha sohalarning umumlashgan maqsadini aks ettirib, o'zida ijtimoiy tashabbus va hamkorlikka tayanadigan tamoyil va ijtimoiy qadriyatlarni talab etadi.

Kasaba uyushmalari negizida inson qadrini yuksaltirishda shaxsga nisbatan doimiy o'zgaruvchan jarayon sifatida, "o'rgatish", "maslahat berish", "yo'naltirish", "o'rganish" kabi munosabatlar tizimida virtual va an'anaviy tarzda amalga oshib, o'zida yangi yondashuvlarni shakllantirdi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023 yil 30 aprel, Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. 2023 yil 11 sentabr.

3. O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni. 2019 yil 6 dekabr.
4. Mirziyoev Sh, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning respublika kasaba uyushmalari faollari va faxriylari bilan o'tkazilgan uchrashuvda so'zlagan nutqi", 2025 yil 17 oktabr, Toshkent.
5. Mirziyoev Sh, "Yangi O'zbekiston. Demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda" nomli risolasi. 2021 yil, Toshkent
6. Rafiqov Q, "Vatan va millat qayg'usi" kitobi, 2020 yil, Toshkent
7. Salomova X., "Me'yorning falsafiy mohiyati va amaliy ahamiyati", 2018 yil, Buxoro.
8. Abdurauf Fitrat. Oila. – T.: «Ma'naviyat», 2000. 112 b
9. Nazarov Q. Inson qadri va shaxsiy qadriyatlar //Qadriyatlar falsafasi.-T.:UFMJ,2004. – B.96-106.
10. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining 2020-2025 yillardagi faoliyati yuzasidan axborotnoma.
11. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining Buxoro viloyat Kengashining 2020-2025 yillardagi faoliyati bo'yicha ma'lumotlar.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).